

Oliy Ta'limda Kompetentlikka Asoslangan Yondashuv Va O'zbek Tilining Rivojlanish Istiqbollari

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'limda kompetentlikka asoslangan yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Kompetentlik tushunchasining mohiyati, uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi va pedagogik mahoratni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash doirasida kasbiy malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari, global va milliy tajribalar asosida innovatsion yondashuvlar taklif etilgan. O'zbekiston ta'lim tizimining islohotlarida kompetentlik modelini joriy etishning istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kompetensiya, oliy ta'lim, uzlusiz ta'lim, kasbiy malaka, pedagogik mahorat, innovatsion ta'lim, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, bilim, malaka va ko'nikma, ta'lim tizimi, raqobatbardosh kadrlar, metodik usullar, malakali mutaxassis.

Jahonda bugungi kunda oliy ta'lim sifati va raqobatbardoshligi ta'minlashga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)" hamda Yevropa Ittifoqining "Evropa oliy ta'lim makoni" (EHEA. 2010) Konsepsiyalari mazmunida «Kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda kompetentlikka asoslangan ta'lim (competence-based learning) modelini joriy etish, ta'limni insonparvarlashtirish asosida kasbiy malakalarni uzlusiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish» oliy ta'limning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu jahon mamlakatlari oliy ta'lim makonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning ilg'or tajribalarini ta'limni tashkil etish va boshqarish jarayoniga integratsiyalashni taqozo etmoqda deya olamiz.

Yurtimizda uzlusiz ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning fanlar doirasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda ularni jahon andozalariga mos ravishda kompetensiyalar bilan qurollantirish, kasbiy malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, zarur bilimlarga ega bo'lishi zarurati ham paydo bo'lmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Parlamentga qilgan Murojaatnomasida barcha sohalar kabi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan hamda rejalashtirilayotgan islohotlarning ham muhim jihatlari qayd etildi. Xususan, Murojaatnomada maktabgacha ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni samarali davom ettirish, umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya sifatini yaxshilash, oliy ta'limning akademik ilm-fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirish orqali ta'lim tizimining barcha bosqichlari orasida o'zaro uzviylik, bog'liqlikka erishish, natijada, butun uzlusiz ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor jihatlar o'z ifodasini topgan. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzlusiz ta'lim tizimi uchun bo'lajak yosh o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan edi². Uni mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi

¹ Namangan davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.



Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni PF-60-sonli farmoni tasdiqlandi. Bu farmon esa “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”dir. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi³.

Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mutaxassislar tayyorlash sifatini va o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish, zamonaviy hayot talablariga javob beradigan pedagogik korpusni tayyorlash va shakllantirish vazifasi mamlakat kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoni hal qilish uchun bugungi pedagogik ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan o‘qituvchilar zamonaviy maktab talablariga to‘liq javob bera olmayotgani va buni barataraf etish muhim vazifaga aylanmoqda. Pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini: uning tashkil etilishi, tuzilishi, mazmuni, malakaviy amaliyoti va ta’lim jarayonidagi innovatsion jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqlik tamoyillarini, o‘qituvchilar tarkibini ko‘paytirish va sifatini yaxshilashni kompleks isloh qilish uchun bir nechta modellarni ishlab chiqish va eksperimental ravishda sinovdan o‘tkazish zarur. Zamonaviy mакtablarimiz uchun mutlaqo boshqacha pedagogik kadrlar kerak. Qoidaga rioya qilishga odatlangan va har bir qadamda ko‘rsatmalar kutib turadigan o‘qituvchi bunday maktablarga mos kelmaydi. Zamonaviy maktab o‘ziga jonli munosabatni, individual yondashishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda kompetentli o‘qituvchini taylorlash masalasini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlarini ochib berish maqsadida bu jarayondagi muammolarning yechimini ko‘rsatadigan psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Mavjud xulosalarning turli-tumanligiga qaramay, barcha tadqiqotlar uchun umumiy bo‘lgan narsa shundaki, ularda kasbiy kompetensiya darajasi talabalarning pedagogik mahoratini shakllantirish darajasiga bog‘liqligi ta’kidlanadi.

“Kompetentlik” tushunchasi hozirgi kun pedagogini tarbiyalashda eng muhim omil hisoblanadi. Ushbu atama lotincha “Competo” (erishyapman, munosibman, loyiqman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ma’nolarni bildiradi.

Kompetentlilik – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, kirishimlilik, muloqatchanlik, tajribalilik, mas’uliyatlilik kabi boshqa xislat va fazilatlar tushuniladi.

Kompetentli yondashuv oliy ta’limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelevi hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada) - ‘bilim - ko‘nikma - malaka’ni oltita birlik (sekstet) – “bilim - ko‘nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya – kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi. Avvalo “kompetensiya” tushunchasining mohiyatiga to‘xtalib olish zarur. Kompetensiya- (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman degan ma’nolarni bildiradi) - subyektning maqsadni qo‘yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralaridan samarali foydalana olishga tayyorligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog‘liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “kompetensiya” tushunchasiga berilgan ba’zi ta’riflar kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgandir.

Ta’lim tizimida o‘zbek tilini ta’limning boshqa tillarida olib boriladigan guruhlarda o‘qitilish yo‘llarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borayotgan pedagogika fanlari doktori, professor X.Muhitdinovaning ishlari ham juda katta ahamiyatga ega. Ta’kidlash lozimki, mazkur tadqiqotda, asosan, rus guruhlarda o‘zbek tili o‘qitish ko‘zda tutilgan. Lekin rus guruhlarda tahsil olayotgan talabalarning bari rusiy zabon emasligini ham inobatga olish kerak. Shu bois olim o‘zbek tili ta’limida muayyan mazmunni ifodalovchi grammatic bilimlarni mazmuniy uzviylik va bosqichma-bosqich uzlusizlikda berilishi, nutqiy mavzularni esa shunga mos holda berib borilishi rusiy zabon o‘quvchilarda o‘zbekcha to‘g‘ri nutqning shakllanishiga va avtomatlashgan nutqiy ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishiga olib keladi, deb hisoblaydi . Buni amalga oshirish uchun o‘zbek tili dasturlari va darsliklarida nutqiy mavzular va grammatic ma’lumotlar quyidagi tartibda berilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



1. muayyan fikrni ifodalashga oid mavzu;
2. grammatik mavzu;
3. nutqiy mavzu;
4. adabiy o‘qish uchun material. Tajriba-sinov ishlari o‘zbek tili ta’limini shu tarzda tashkil etish o‘quvchi-talabalarning o‘zbek tilida fikrlash doirasini kengaytirishga, ularda o‘zbek tilida mustaqil ifodalay olish imkoniyatini yuzaga keltirishga, yordam berishini ta’kidlab o‘tdi. Bizni tadqiqotimizning maqsadi ham o‘zbek tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi. Professor X.Muhitdinovaning fikrlariga qo‘shilgan holda yana shuni qo’shimcha qilamiz. O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘rgatish bir vaqtning o‘zida ham soddaligi, ham murakkabligi bilan ajralib turadi. Biz boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga o‘zbek tilini o‘rgatishda quyidagi usullardan foydalanishni ma’qul ko‘rmoqdamiz:

1. So‘zlarning ma’nolarini tushuntirish
2. Matnlarni to‘g‘ri tarjima qila olish
3. Gaplarni mantiqan bir-biriga bog‘lay olish
4. Berilgan matnga ozining mustaqil fikrini bildira olishi.

Mazkur yondashuv uzlusiz ta’lim tilimining barcha bosqichlarida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Biz talabalarni kelgusi faoliyatida nutq bilan bog‘liq muammolarni yuzaga kelishini oldini olish uchun harakat qilyapmiz. Bu kasbiy faoliyatida ham yutuqlarga erishishi uchun zamin tayyorlaydi.

Ye.I. Passov o‘z tadqiqotlarida “Ikkinchi til ta’limida eng muhim va murakkab muammolardan biri til va nutq materiallarini tanlash va ularni to‘g‘ri taqsimlash bo‘lib, bunda, avvalo, o‘quvchilarning yoshi, ta’lim yo‘nalishini e’tiborga olgan holda grammatik minimumni tanlash va taqsimlash, ya’ni kimga nimani qachon berilishi muammosini hal qilish kerak bo‘ladi”, degan edi.

L. S. Vigotskiy ona tilini o‘rganish pastdan yuqoriga, xorijiy tilni egallash esa yuqoridan pastga yo‘nalishida amalga oshirilishini ta’kidlagan edi.

Mutaxassislik yo‘nalishida ham o‘zbek tilidan ta’lim beriladi. Lekin o‘qitishdan farq qilgan holda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda o‘quv topshiriqlarining asosiy qismi nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuning uchun mazkur ta’limga doir mashqlar, topshiriqlar ham turlicha bo‘ladi. Dars mashhg‘ulotlari amaliy shaklda tashkil etiladi. Darslarning turlicha tashkil etilishi bo‘yicha ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini berib o‘tishgan jumladan,

B. Lapidus ularni nutq mashqlari va til mashqlariga ajratgan bo‘lsa, Ye.Passov “mashqlarni til va nutq mashqlariga bo‘lish til va nutqning butunligiga ta’sir ko‘rsatadi” deb hisoblaydi va shunga ko‘ra u mashqlarni kommunikativ va shartli kommunikativ mashqlarga bo‘linishini aytib o‘tgan.

Shaxsga o‘zga etnik jamoa a’zolari bilan o‘zaro aloqadorlik shartlari va munosabatini to‘g‘ri baholay olish imkonini beruvchi bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalarining namoyon bo‘lish darajasi va ular bilan o‘zaro ishonch va kelishuv muhitini saqlab turish maqsadida oqilona yuritilgan hamkorlik shakli sifatida qator tadqiqotlarda o‘rganilgan. V.Gudikuns, D.Masumoto, G.Triandis, M.Bennet, D.Raven, U.Stefan va boshqalar etnomadaniy kompetentlik va uning ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishgan. Madaniyatlararo munosabatlarda shaxsning ikki tilda so‘zlasha olish imkoniyati, ya’ni uning bilimlilagini K.Beyker, N.Xomskiy, T.Adorno, D.Abrame, D.Berri, G.Teshfel, M.R.Xammer, M.Bayrom va boshqalar o‘rganishgan. Mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishga o‘rgatish bugungi kunda barcha oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifasi deya olamiz. Talaba mustaxkam bilim, o‘qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko‘nikma va malakasi, shuningdek o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, olgan bilimlarini amalda qo‘llash usullari va vositalarini uyg‘un birlashtira olishi kerak.



Xulosa qilib aytganda talabalar ta'lim jarayonida o'zbek tilini o'rganish metodikasiga ega bo'lishlari uchun, so'zlarni to'g'ri tushuna olishlari, darslarda va darsdan tashqari vaqtarda elektron lug'atlardan foydalanish, amaliy mashg'ulotlarda turli qiziqarli metodlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муҳиддинова Ҳ. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед.ф.д-ри. дисс. автореф.– Т, ТДПИ, 2011. – 52 б.
2. Пассов Е.И. Основы методики обучения иностранным языкам. –М.: Русский язык, 1977.– С. 152
3. Выготский Л.С. Мысление и речь //Избранные психологические исследования.– М. 1956.– С. 291.
4. Лапидус Б.А. К проблеме функциональной дифференциации языкового материала // Иностранные языки в высшей школе. – М.: 1975.
5. Пассов Е. И. Коммуникативные упражнения. – М.–Л.: Просвещение, 1967. – С. 6–8.
6. Муҳиддинова Ҳ. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. ф. ном-ди дисс. автореф.– Тошкент: ТДПИ, 2011. – 52 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. -267-бет
8. Зимняя И.Н. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Ж.Высшее образование сегодня, №5. – Москва, 2003. – С.34-42.
9. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/download/3013/5757/2937>
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarning-kommunikativ-kompetensiyasini-rivojlantirishdanutqiymashqlardan-foydalanishning-nazariy-metodologik-asoslari>
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3KCkAIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
12. Jo'rayeva, T. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3 Part 2), 77–80. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11080>
13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=kXvDfHgAAAAAJ&citation_for_view=kXvDfHgAAAAAJ:u-x6o8ySG0sC
14. <https://zenodo.org/records/11213749>
15. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=iTwEcNgAAAAJ&citft=1&citation_for_view=iTwEcNgAAAAJ:u5HHmVD_uO8C

